
MAJBURIYATINI UNUTGAN OTA JAVOBGARLIKKA TORTILDI



Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi organlarida joriy yilning fevral-mart oylari «Aliment undiruvchi oyligi» deb eʼlon qilingani munosabati bilan bu boradagi ishlar qizgʻin tus oldi.

Byuroning birgina Qoʻshitepa tumani boʻlimi ish yurituvida 1100 tadan ortiq aliment undiruvchi bilan bogʻliq ijro hujjatlari mavjud. Fuqarolik ishlari boʻyicha Margʻilon tumanlararo sudining 2021 yil 8 fevraldagi sud buyrugʻiga asosan Xumdon MFY, Baxt koʻchasida yashovchi M.M.dan fuqaro Sh.M. foydasiga 2 nafar voyaga yetmagan farzandlari taʼminoti uchun aliment undirish belgilangan.

Otalik majburiyatini bajarishdan boʻyin tovlagan qarzdor M.M. bir yil mobaynida jami 9.162.945 soʻmlik aliment pullarini toʻlamagani uchun Jinoyat ishlari boʻyicha Qoʻshitepa tumani sudining 2022 yil 4 martdagi qarori bilan Oʻzbekiston Respublikasi MJtKning 474-moddasi 1-qismidagi huquqbuzarlikni sodir etgan deb topilib, unga nisbatan 15 sutka maʼmuriy qamoq jazosi tayinlandi.

Jigarbandlariga nisbatan otalik hissiyoti uygʻonishi va qalb «koʻzi» ochilishi uchun M.M.ga bu muddat yetarli boʻlsa kerak, deb umid qilamiz.

Aks holda, bu kabi xatti-harakatlar kelgusida uni jinoyat «eshigi» tomon yetaklashi mumkin.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-03-09 09:15:06